



# SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## DEMOGRAFIK HOLATI

*2024- yil  
yanvar-iyun*



### SURXONDARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2024- yil 1- iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Surxondaryo viloyatida 2024- yil 1- iyul holatiga doimiy aholi soni **2907,5** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **30,4** ming kishiga yoki **1,1 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1051,6** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,2 %**), qishloq aholisi soni **1855,9** ming kishi (**63,8 %**) ni tashkil etdi.

Viloyat ma'muriy-hududiy jihatdan 1 ta viloyat bo'y sunuvidagi shahar va 14 ta tumanga bo'lingan, aholi zichligi 1 kv. km ga 144,7 kishiga to'g'ri keladi.

Ma'muriy markazi – Termiz shahri bo'lib, aholisi 204,4 ming kishi.

#### Doimiy aholi soni

**2907,5**

ming kishi

#### Tabiiy o'sish

**+31,6**

ming kishi

#### Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

##### Shahar joylarda



**1051,6** ming kishi

##### Qishloq joylarda



**1855,9** ming kishi

#### Doimiy aholi sonining taqsimlanishi


2024- yil 1- iyul holatiga

##### Erkaklar


**50,6 %**

##### Ayollar

**49,4 %**



**1471,5** ming kishi



**1436,0** ming kishi



# SURXONDARYO VILOYATI

## STATISTIKA BOSHQARMASI


**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o‘tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi**

*1- iyul holatiga, ming kishi*

	2023- yil	2024- yil	O’sish sur’ati, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>2 836,1</b>	<b>2 907,5</b>	<b>102,5</b>
Termiz sh.	198,5	204,4	103,0
tumanlar:			
Oltinsoy	189,7	194,7	102,6
Angor	141,9	145,3	102,4
Bandixon	81,7	84,0	102,8
Boysun	123,0	125,6	102,1
Muzrabot	151,7	155,0	102,2
Denov	414,3	425,0	102,6
Jarqo‘rg‘on	234,8	240,9	102,6
Qumqo‘rg‘on	251,8	258,2	102,5
Qiziriq	122,4	125,2	102,3
Sariosiyo	224,6	229,9	102,4
Termiz	83,4	85,8	102,9
Uzun	185,0	189,8	102,6
Sherobod	208,1	212,7	102,2
Sho'rchi	225,2	231,0	102,6

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi


1- iyul holatiga, ming kishi



Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2024- yil 1- iyul holatiga, eng ko'p aholi soni Denov tumanida 425,0 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi (14,6 %) va Qumqo'rg'on tumanida 258,2 ming kishini (8,9 %), Jarqo'rg'on tumanida 240,9 ming kishi (8,3 %) va aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 84,0 ming kishini (2,9 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati yil boshiga nisbatan soni Denov tumanida 4,8 ming kishi (1,1 %) va Qumqo'rg'on tumanida 2,7 ming kishini (1,1 %), Jarqo'rg'on tumanida 2,5 ming kishi (1,1 %) va aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 1,0 ming kishini (1,2 %) tashkil etdi.

**Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni**  
**2024- yil yanvar-iyun holatiga, ming kishi**



**Surxondaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar**  
**2024- yil yanvar-iyun, dastlabki ma'lumotlar**





# SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## Viloyat bo‘yicha aholining tabiiy harakati

(yanvar-iyun)

	kishি			1000 aholiga nisbatan	
	2023- yil	2024- yil	<i>o’sish, kamayish, +,-</i>	2023- yil	2024- yil
Tug‘ilganlar	38311	37663	-648	27,4	26,2
O‘lganlar	6726	6095	-631	4,8	4,2
Nikohlar	8569	8121	-448	6,1	5,6
Ajralishlar	1470	1435	-35	1,1	1,0
Ko‘chib kelganlar	5265	5351	86	3,8	3,7
Ko‘chib ketganlar	7167	6533	-634	5,1	4,5

**Tug‘ilish.** 2024- yilning yanvar-iyun oylarida 37,7 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va keyinchalik tirik tug‘ilganlar inobatga olinadi), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti 26,2 promilleni tashkil etdi hamda 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,2 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 27,4 promille bo‘lgan).

*Ma’lumot uchun: tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.*




# SURXONDARYO VILOYATI

## STATISTIKA BOSHQARMASI

Hududlar kesimida tug‘ilganlar sonining  
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi,  
(yanvar-iyun holatiga, kishi)

	2023- yil	2024- yil*	O‘sish sur’ati %
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>38 311</b>	<b>37 663</b>	<b>98,3</b>
Termiz sh.	2 503	2 498	99,8
tumanlar:			
Oltinsoy	2 428	2 550	105,0
Angor	1 872	1 788	95,5
Bandixon	1 231	1 176	95,5
Boysun	1 512	1 534	101,5
Muzrabot	1 914	1 826	95,4
Denov	6 081	5 902	97,1
Jarqo‘rg‘on	3 523	3 195	90,7
Qumqo‘rg‘on	3 453	3 437	99,5
Qiziriq	1 654	1 665	100,7
Sariosiyo	2 702	2 639	97,7
Termiz	1 252	1 228	98,1
Uzun	2 382	2 431	102,1
Sherobod	2 796	2 676	95,7
Sho‘rchi	3 008	3 118	103,7

**Hududlar kesimida tug‘ilishlar soni va  
tug‘ilish koeffitsiyenti  
(2024- yil yanvar-iyun)**




**Tabiiy o‘sish.** 2024- yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o‘sishi 31,6 ming kishini (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 31,6 ming kishi) tashkil etdi.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha

2024- yil yanvar-iyun

Jamiga nisbatan ulushi,

% da



**Vafot etganlar.** 2024- yilning yanvar-iyun oylarida 6,1 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,2 promilleni tashkil etdi, 2023- yilning mos davriga 4,8 promille bo'lgan.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida 6,1 ming nafar o'lim qayd etilgan bo'lib, vafot etganlarning 58,4 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,4 % i xafvli o'simtalardan, 5,3 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,1 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 6,6 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,1 % i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 15,1 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**Hududlar kesimida vafot etganlar sonining o‘tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi**  
*(yanvar-iyun holatiga)*

<b>Hududlar</b>	<b>2023- yil</b>	<b>2024- yil*</b>	<b>O‘sish sur’ati +:-</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>6 726</b>	<b>6 095</b>	<b>-631</b>
Termiz sh.	501	454	-47
tumanlar:			
Oltinsoy	481	354	-127
Angor	397	305	-92
Bandixon	222	145	-77
Boysun	303	295	-8
Muzrabot	356	307	-49
Denov	889	878	-11
Jarqo‘rg‘on	600	556	-44
Qumqo‘rg‘on	552	536	-16
Qiziriq	357	252	-105
Sariosiyo	377	435	58
Termiz	188	268	80
Uzun	427	345	-82
Sherobod	532	488	-44
<b>Sho‘rchi</b>	<b>544</b>	<b>477</b>	<b>-67</b>




**Hududlar bo‘yicha nikoh tuzganlar sonining  
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi  
(yanvar-iyun)**



Hududlar	2023- yil	2024- yil*	O‘sish sur’ati +:-
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>8 569</b>	<b>8 121</b>	<b>-448</b>
Termiz sh.	589	529	-60
tumanlar:			
Oltinsoy	578	504	-74
Angor	426	386	-40
Bandixon	252	236	-16
Boysun	290	322	32
Muzrabot	473	476	3
Denov	1162	1149	-13
Jarqo‘rg‘on	855	766	-89
Qumqo‘rg‘on	756	698	-58
Qiziriq	353	355	2
Sariosiyo	725	652	-73
Termiz	302	294	-8
Uzun	504	499	-5
Sherobod	557	601	44
<b>Sho'rchi</b>	<b>747</b>	<b>654</b>	<b>-93</b>



### Hududlar bo'yicha nikoh tuzganlar soni va nikoh koeffitsiyenti kishi (2024- yil yanvar-iyun)



**Hududlar bo‘yicha nikohdan ajralishlar sonining  
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi  
(yanvar-iyun)**

Hududlar	2023- yil	2024- yil*	O‘sish sur’ati +:-
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1 470</b>	<b>1 435</b>	<b>-35</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>160</b>	<b>146</b>	<b>-14</b>
tumanlar:			
Oltinsoy	85	94	9
Angor	72	71	-1
Bandixon	37	41	4
Boysun	66	46	-20
Muzrabot	93	79	-14
Denov	241	221	-20
Jarqo‘rg‘on	101	102	1
Qumqo‘rg‘on	106	144	38
Qiziriq	46	55	9
Sariosiyo	114	104	-10
Termiz	53	60	7
Uzun	90	80	-10
Sherobod	112	112	0
Sho‘rchi	94	80	-14

Ajrim koeffitsientida aksariyat tumanlarda o‘tgan yilga nisbatan o‘sish kuzatildi. O‘tgan yilga nisbatan kamayish Sherobod tumani (1,0 promillega), Oltinsoy tumani (1,0 promillega), Denov tumani (0,2 promillega), Termiz shahrida (0,8 promillega) kuzatildi.

### Hududlar bo'yicha nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

(2024- yil yanvar-iyun kishi, promille)



### Aholi migratsiyasi (kishi)

2024- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 5,4 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 6,5 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,2 ming kishi bo'lib, 2023- yilning mos davrida minus 1,9 ming kishi bo'lgan.

**2023- yil**

yanvar-iyun

5265

7167

-1902

**2024- yil**

yanvar-iyun

5351

6533

-1182

Ko'chib kelganlar

Ko'chib ketganlar

Migratsiya saldosi





# SURXONDARYO VILOYATI

## STATISTIKA BOSHQARMASI

Hududlar kesimida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni  
(2024- yil yanvar-iyun uchun, kishi)

Hududlar	Ko‘chib kelganlar soni	Ko‘chib ketganlar soni	Migratsiya saldosi
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>5 351</b>	<b>6 533</b>	<b>-1 182</b>
Termiz sh.	1 754	960	794
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	141	235	-94
Angor	350	367	-17
Bandixon	132	189	-57
Boysun	140	360	-220
Muzrabot	262	457	-195
Denov	364	603	-239
Jarqo‘rg‘on	362	485	-123
Qumqo‘rg‘on	279	463	-184
Qiziriq	190	375	-185
Sariosiyo	76	386	-310
Termiz	622	473	149
Uzun	197	292	-95
Sherobod	254	465	-211
Sho‘rchi	228	423	-195



# SURXONDARYO VILOYATI

## STATISTIKA BOSHQARMASI

### Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shilib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayrıldi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalikklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.



# SURXONDARYO VILOYATI

## STATISTIKA BOSHQARMASI

**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko‘chib kelish.

**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migratsion o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Demografiya mehnat va gender statistikasi bo‘limi  
Tel: (76) 225-65-60**